JIZZAX VILOYATIDAGI DEMOGRAFIK JARAYONLARNING XUSUSIYATLARI

A.U.Yuldashov, M.M Fayzullayev, S.R.Ahmadqulov
Guliston davlat pedagigika instituti o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatidagi demografik jarayonlarga doir faktik materiallar keltirib o‘tilgan. Jizzax viloyatining demografik holati haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: demografik, aholi, nikoh, tabiiy ko‘payishi, Jizzax, tug‘ilish, o‘lim, mehnat resurslari.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e’lon qilinganidan so‘ng jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshladi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi qator o‘zgarishlar negizida, demografik vaziyatni yaxshilash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘z navbatida tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish masalalari, shuningdek, aholining ma’lumotlilik darajasini aniqlash kabi muammolarni tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, har qanday jamiyatda demografik tahlil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etishi lozim. Shundagina jamiyat muntazam ravishda har tomonlama rivojlanib boradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining idoralararo kengashida “Bugun yurtimizda demokratik jarayonlar qanday kechayotgani uning o‘sish sur’ati, yaqin kelajakda bizni bu borada qanday muammo kutayotgani, mehnatga layoqatli aholi soni qancha ko‘payishi, ular ish bilan qanday ta’minlanishi haqida kim nima deya oladi? Hozirdanoq mehnatga layoqatli aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta’minlash masalasi o‘ktir muammo bo‘lib turibdi. O‘zingiz o‘ylang,

bugun ahvol shunday bo‘lsa, xo‘sh, ertaga nima bo‘ladi? – degan edi. Respublikada aholi soni va mehnat resurslari har yili katta sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydi. O‘z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog‘langanlik, ko‘chib yurishga moyilliklarini yo‘qligi Respublika aholisiga xos xususiyatlar respublikadagi o‘ziga xos demografik vaziyatning g‘oyat muhim xususiyatlardan biridir.

Jizzax viloyati o‘zini-o‘zi mehnat resurslari bilan ta’minlagan bo‘lsada, ammo ma’lum sohalarda ish kuchi yetishmayotganligi sezilib turgan. Aholisi zich joylashgan, malakali kadrlar bilan yuqori darajada ta’minlangan Samarqand, Toshkent viloyatlari oralig‘ida joylashganligi geografik o‘rnining qulayligi, viloyatdagi ba’zi muammolarni hal etishda aholi orasidagi migratsion faollik ham yordam bergan.

Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni 2024 yil yanvar-iyun holatiga 1 521,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 14,5 ming kishiga yoki 101 % ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 714,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 46,9 %), qishloq aholisi soni 807,7 ming kishi (53,1 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida eng ko‘p aholi soni SH.Rashidov tumanida 245,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,1 % ni) va Jizzax shahrida 197,8 ming kishini (13 %), aksincha eng kam aholi soni Yangiobod tumanida 30 ming kishini (2 %) va Arnasoy 49,1 ming kishi (3,2 %) ni tashkil etdi.

Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumani demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha oldinda bo‘lib, bu shahar va tuman viloyat markazi bo‘lganligi uchun, shaharlar orasida aholi ulushining demografik manzarasi yuqoridir. Chunki, viloyat markazi bo‘lgan shaharda migratsion jarayonlar ham ko‘proq bo‘ladi (aholining ko‘chib kelishi nazarda tutilmoqda).

2023 yil Jizzax viloyatidagi demografik jarayonlar

	Tug‘ilish	**O‘lim**	**Nikoh**	**Ajralish**
Jizzax viloyati	40875	6841	11863	1679
Jizzax sh.	4962	830	1766	285
Tumanlar				
Arnasoy	1102	232	305	44
Baxmal	5256	832	1521	158
G‘allaorol	5327	889	1561	196
Sharof Rashidov	7275	1141	1830	265
Do‘stlik	1689	302	484	82
Zomin	5125	777	1442	190
Zarbdor	2595	404	657	111
Zafarobod	1415	292	379	57
Mirzacho‘l	1102	194	347	68
Paxtakor	2125	375	618	104
Forish	2255	402	719	80
Yangiobod	647	171	234	39

2023 yil Jizzax viloyatida 40875 kishi tug‘ilgan, 6841 kishi vafot etgan bo‘lib, 11863 ta nikoh, 1679 ta ajrashishlar qayd qilingan. Eng ko‘p ajrimlar Jizzax shahrida 178 ta (har ming kishiga – 1,8) va SH.Rashidov tumanida 125 ta (1), aksincha eng kam ajrimlar Yangiobod tumanida 10 ta (0,7) va Zafarobod (1) hamda Do‘stlik (0,7) tumanlarida 26 tadan tashkil etdi. Bu davrda Jizzax viloyati shahar va tumanlaridagi demografik jarayonlarda asosan Jizzax shahri, G‘allaorol, Sharof Rashidov tumani aholisi faolroq bo‘lib, bu yerda tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish holatlari boshqa shaharlarga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichda bo‘lgan.Tog‘li hudud hisoblangan Zomin, G‘allaorol, Baxmal tumanlarida o‘lim holati boshqa hududlarga nisbatan yuqoridir. Jizzax viloyati tumanlaridagi demografik jarayonlarda tug‘ilishning yuqoriligi Sharof Rashidov tumanida 7275 ta, G‘allaorol tumanida 5327 ta, Zomin tumanida 5125 ta, Forish tumanida 2255 ta, Baxmal tumanida 5256 taga to‘g‘ri kelib, boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichda bo‘lgan. O‘lim asosan Sharof Rashidov tumanida 1141 kishi, G‘allaorol tumanida 889 kishi, nikoh Sharof Rashidov, Baxmal, G‘allaorol, tumanlarida yuqori bo‘lsa, ajralish yangi tashkil topgan Zomin, Paxtakor

tumanlarida yuqoriroqdir. 2024 yil yanvar-iyun holatiga 18,6 ming nafar bola (har ming aholiga – 24,7) tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib , shundan eng ko‘p tug‘ilishlar SH.Rashidov 3 323 nafar (har ming kishiga – 27,3) va G‘allaorol 2 535 nafar (27,1) tumanlarida, aksincha eng kam tug‘ilishlar Yangiobod 280 nafar (18,8) hamda Mirzacho‘l tumanlarida 511 nafar (18,5) ni tashkil etdi. Qayd etilgan o‘limlar soni 2 962 ta bo‘lib, har ming aholiga o‘lim koeffitsienti 3,9 promilleni tashkil etgan. O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha: qon aylanishi tizimi kasalliklaridan-1 582, o‘simtalardan-278, nafas olish a’zolari-270, baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan-236, ovqat hazm qilish a’zolari-146, yuqumli va parazitar kasalliklardan-35, boshqa kasalliklardan-415.

Statistik ma’lumotlarda keltirilishicha, 1974 yili respublikaning turli hududlari, jumladan, Farg‘ona viloyatidagi qishloq hududlaridan Jizzax viloyatiga 26 kishi, Qashqadaryo viloyatidan Jizzax viloyatiga 65 kishi, Andijon viloyatidan Jizzax viloyatiga 19 kishi, Samarqand viloyatidan Jizzax viloyatiga 219 kishi, Toshkent viloyatidan Jizzax viloyatiga 52 kishi ko‘chib kelgan.

Jizzax viloyati bo‘yicha 2024-yil doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar 3 297 kishi, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil etgan. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar 4 510 kishi, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsienti 6 promilleni tashkil etgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, tahlil etilayotgan yillarda respublikamizning turli viloyatlaridan Jizzax viloyati bilan faol migratsion jarayonlar bog‘lagan edi.

Tahlil etilayotgan yillarda respublika miqyosida paxta ekin dalalarini ko‘paytirish, irrigatsiya inshootlarini qurish, suv xo‘jaligi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ko‘pgina ishlar bajarilayotgan edi. Bu jarayon tabiiyki o‘rganilayotgan hududga ham xos bo‘lib, natijada Jizzax viloyatidagi demografik va migratsion jarayonlarga ta’sir o‘tkazgan edi.

O‘z davrining rahbari bo‘lgan SH.Rashidov Mirzacho‘l va Jizzax cho‘lini o‘zlashtirishga katta hissa qo‘shdi. Asosiy korxonalar Jizzaxda, Gulistonda, Bekobodda, Xovos bekatida, Yangiyerda joylashgan bo‘lib, keyinroq bunday qurilish korxonalari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham qurilgan. Qo‘riqni kompleks o‘zlashtirishga bunday yondashuv sovxozlarda uy-joy, boshqa tomondan esa ishchi kuchi saqlashga sharoit yaratgan. Shuningdek, sanoat sohalarini rivojlantirish va madaniy-maishiy muammolarni hal etilishini tezlashtirgan to‘liq ijtimoiy-iqtisodiy tizim yaratila borgan. Buni ishlarni jadallashtirishga SH.Rashidov munosib hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, Mirzacho‘l hududlarining o‘zlashtirilishi natijasida yangi shaharlar paydo bo‘lgan bo‘lsada, bu jarayonda olib borilgan ko‘chirish siyosati bir qator kamchiliklar bilan kechib, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi demografik holatga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Xususan, Sirdaryo va Jizzax viloyati hududlariga respublikadagi viloyatlar va ittifoqdosh respublikalardan mahalliy aholi va boshqa millat vakillari (ruslar, ukrainlar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar va b.) ko‘chirib keltirildi. Lekin, ularning bir qismi yashash sharoitining og‘irligi, ijtimoiy infrastrukturaning talab darajasida bo‘lmaganligi va boshqa omillar sababli o‘z yurtlariga qaytib ketdi (Rossiyada va Qozog‘istondan kelgan mutaxassislarning katta qismi, respublika miqyosida Toshkent shahridan borganlar). Ko‘chib kelganlar orasida Sirdaryo viloyatida rus millatiga mansub aholi ko‘proq bo‘lsa, Jizzax viloyatida qozoq millati vakillari boshqalarga nisbatan ko‘proq edi. Bu jarayon tabiiyki o‘rganilayotgan ushbu viloyatlaridagi demografik va migratsion jarayonlarga ta’sir o‘tkazgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyuev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 484 b.

3. Mirzaliyev U.B. O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida, 1956-2020 yy.). Tarix fan. nomzodi... diss. – Toshkent, 2022.

4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. – Tashkent, 2018. - 200 b.

5. Tilovberdiyev O. Mirzacho‘l mardlar maskani. – Toshkent: O‘zbekiston, 1969. - 46 b.

6. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylashishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 276 b.

7. Tojiyeva Z.N., Ata-Mirzayev O.B., Zokirov S.S. Demografiya. –Toshkent: O‘z MU, 2013. - 74 b.

8. Soliyev A. Qishloq joylari demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2005. - 140 b.